



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA BAXMAL TUMANI QISHLOQ XO‘JALIGI SOHALARINING RIVOJLANISH TARIXI

Jo‘raqulova Nurmohi Ne‘matulla qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Baxmal tumani Jizzax viloyati hududida joylashgan tuman hisoblanib, ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Baxmal tumani qishloq xo‘jaligi sohalarining rivojlanish tarixi xususan chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanish istiqbollari hamda yaxshilanishi kerak bo‘lgan kamchiliklar, Respublikada qabul qilinga Prezident farmonlari va ularning Baxmal tumanidagi ijrosi va bajarilish istiqbollari haqida ma‘lumot beradi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, fermer xo‘jaligi, Sangzor daryosi.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА БАХМАЛЬСКОГО РАЙОНА В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Журакулова Нурмохи Нематулла кизи

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант

Аннотация

Бахмальский район расположен на территории Джизакской области, и в данной статье представлена информация об истории развития сельского хозяйства в Бахмальском районе в первые годы независимости, в частности о перспективах развития животноводства и земледелия, существующих недостатках, требующих улучшения, а также о реализации указов Президента, принятых в Республике, и перспективах их выполнения в Бахмальском районе.

Ключевые слова: независимость, сельское хозяйство, животноводство, фермерское хозяйство, река Сангзор.

THE HISTORY OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT IN BAKHMAL DISTRICT DURING THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE

Juraqulova Nurmohi Nematulla qizi

Jizzakh State Pedagogical University, Basic Doctoral Student

Abstract

Bakhmal district is located in the Jizzakh region, and this article provides information about the development history of agricultural sectors in Bakhmal district during the early years of independence, in particular the prospects for the development of livestock breeding and crop production, existing shortcomings that need improvement, as well as the implementation of Presidential decrees adopted in the Republic and their execution prospects in Bakhmal district.

Keywords: independence, agriculture, livestock farming, фермер xo‘jaligi (farmer enterprises), Sangzor River.

Mustaqillik har bir xalq uchun eng oliy baxt hisoblanadi. Mustaqil harakat insonni yangilikka, o‘shiga undaydi, shuningdek, mustaqillik jamiyat uchun har doim oldiga maqsad qo‘yib, ana shu maqsad yo‘lida samarali harakat qila olish vositasi bo‘lib kelgan. O‘zbekiston Respublikasi 1991-yilda mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng har bir sohada bosqichma-

bosqich mustaqil harakat qila boshladi. Bunda, ayniqsa, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, aholini oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash darajasini yaxshilash masalasi muhim o'rin tutdi. Ushbu rivojlanish davlatning har bir hududidagi, hatto chekka tumanlardagi aholining ham matonat bilan mehnat qilishini taqozo etdi. Chunki yerdan unumli va samarali foydalana olish, birinchi navbatda, aholi ehtiyojlarini ta'minlashga, ortiqcha mahsulotning mavjudligi esa bozor iqtisodiyoti va sanoatning samarali faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jizzax viloyatida joylashgan Baxmal tumanida ham respublikada qabul qilingan qarorlar, qonunlar va Prezident farmonlari ijrosi o'z tasdig'ini topib kelgan. "Gulbuloq" davlat xo'jaligi chorvadorlari birinchi Prezidentimizning "Qishloq joylarda chorvachilikni rivojlantirish, aholini sut va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlash" xususidagi farmonini amalda bajarish uchun 7 ta fermer xo'jaligi tashkil qilgan [1]. Ularning faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'sha davrdan boshlab mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Xo'jalik partkom sekretari Sh. Sarimsoqov bayonotiga ko'ra, jamoat chorvasini rivojlantirish uchun xonadonlarga 7 bosh qoramol, 626,7 tonna har xil xashak, 960 kilogramm yem sotilgan. Shuningdek, aholining turmush sharoitini yaxshilash borasida xo'jalikda yashaydigan 176 oilaga uy-joy uchun yer ajratilgan bo'lib, ushbu aholi yerdan unumli foydalanish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solgan.

Baxmal tumanida tashkil etilgan "Nurliqyosh" davlat xo'jaligi chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hamda tayyorlashga ixtisoslashtirilgan bo'lib, 1991-yilning 9 oylik yakunida ushbu xo'jalikda 2619 bosh yirik shoxli mol, shundan 900 bosh sigir, 835 bosh qo'y, 30 bosh yilqi, 4079 bosh parranda bo'lgan. Yillik go'sht ishlab chiqarish 78 foizga, sut ishlab chiqarish 90 foizga, tuxum ishlab chiqarish 81 foizga, jun ishlab chiqarish 100 foizga, mollardan vazn olish 54 foizga bajarilgan [2]. Bu raqamlar xo'jalikda bajarilishi kerak bo'lgan ishlar talab darajasidan ancha past ekanligini ko'rsatadi. Mavjud holatni yaxshilash borasida 2- va 4-bo'lim boshliqlari faoliyati ko'rib chiqilib, tashkiliy xulosa chiqarish tuman agrosanoat uyushmasiga topshirilgan. Ozuqa sexlari va fermalardagi barcha mexanizmlarning oktyabr oyining 20-sanasi gacha to'liq ishlashini ta'minlashga yordam berish tuman remont-ishlab chiqarish birlashmasi boshlig'i M. A. Alimovga yuklatilgan. Bu kabi amalga oshirilgan chora-tadbirlar mavjud salbiy holatlarning yaxshilanishiga xizmat qilgan.

Baxmal tumanini ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning 9 oylik rejalarining bajarilishi yuzasidan berilgan ma'lumotga binoan, qishloq xo'jaligi sohasida tuman bo'yicha davlatga go'sht topshirishning 9 oylik rejasi 89 foizga bajarilgan. Rejadagi 2488 tonna o'rniga 2210 tonna topshirilgan. Bir yil oldin bu ko'rsatkich 2694 tonnani tashkil etgan bo'lib, mazkur miqdor bir yil oldingi ko'rsatkichga nisbatan 484 tonna kam bo'lgan [3]. Yildan yilga yetishtirilgan mahsulot miqdorining kamayishi ishlab chiqarish sanoatiga va aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir qilgan. Shuning uchun hukumat mavjud holatni tahlil qilib, uni yaxshilash choralarini ko'rishga intilgan bo'lib, quyidagi jadvalda hududlar kesimida tahlil keltirilgan.

1-jadval

Davlatga go'sht topshirish bo'yicha Baxmal tumani xo'jaliklarining amalga oshirgan ishlari

T/r	Xo'jalik nomlari	Rejada belgilangan qiymati	Bajarilgan qiymati	Bir yil oldingi qiymatga nisbatan qancha kam ekanligi
1	Gulbuloq	75 tonna	43 foiz, ya'ni 32 tonna	40 tonna
2	Michurin	60 tonna	48 foiz, ya'ni 29 tonna	32 tonna
3	Uzunbuloq	296 tonna	61 foiz, ya'ni 180 tonna	101 tonna
4	Sangzor	292 tonna	83 foiz, ya'ni 242 tonna	39 tonna

5	Nurliqyosh	215 tonna	86 foiz, ya'ni 186 tonna	berilmagan
6	Nushkent	25 tonna	32 foiz, ya'ni 8 tonna	27 tonna

Tuman bo'yicha davlatga sut topshirishning 9 oylik rejasi 111 foizga, ya'ni rejadagi 2845 tonna o'rniga 3159 tonna bajarilgan. Bu ko'rsatkich belgilangan miqdordan ortiq bo'lib, ijobiy holat sanalsa-da, bir yil oldingi bajarilgan miqdordan 539 tonna kam bo'lgan, ya'ni bir yil oldin bu ko'rsatkich 3698 tonnani tashkil etgan [4].

2-jadval

Ushbu 9 oylik davr davomida davlatga topshirilgan mahsulotlar va ularning miqdori

T/r	Davlatga topshirilgan mahsulot nomi	Rejada belgilangan qiymati	Bajarilgan qiymati	Bir yil oldingi qiymatga nisbatan qancha ekanligi
1	Tuxum	852 ming dona	835 ming dona, ya'ni 98 foiz	60 ming dona kam
2	Jun	95 tonna	93,4 tonna, ya'ni 98 foiz	96,2 tonna bo'lgan
3	Qorako'l teri	900 dona	132 foiz, ya'ni 1106 dona	362 donaga ko'p
4	Go'sht ishlab chiqarish	3161 tonna	73 foiz, ya'ni 2297 tonna	635,5 tonna kam

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladigan narsa bu — yerning unumdorlik darajasi va undan o'rinli foydalana olish istiqbollari sanaladi. Jizzax vohasidagi eng yaxshi sug'oriladigan yerlardan biri, hozirgi Baxmal va G'allaorol tumanlarining tog'oldi hududlaridagi unumdor yerlar hisoblanib, ular hatto 90-yillar boshida ruslar tomonidan kelgan ko'chmanchilarga alohida ajratib berilgan [5].

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha qabul qilgan farmonlarini bajarish yuzasidan tumandagi mahalliy Kengashlar hamda xo'jalik organlarining olib borayotgan ishlari haqida yigirma birinchi chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashida tuman hokimi X. Ashurqulovning ma'ruzasi eshilib, bu borada qishloq va posyolka [6] Kengashlari, xo'jaliklar hamda tumandagi tashkilot va muassasalar tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilgani qayd etilgan.

Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hajmini ko'paytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kolxozchilar, sovxozlar ishchilari va qishloq joylarda yashovchi boshqa fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni asosida tuman bo'yicha 1991-yilda 1833 ta oilaga uy-joy qurish va tomorqa uchastkalarini kengaytirish uchun 500 gektar yer ajratilgan [7].

"Jumhuriyat aholisi shaxsiy xo'jaliklaridagi mollar va parrandalarni yem-xashak bilan ta'minlash va ularda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish to'g'risida"gi farmonni bajarish yuzasidan tuman xo'jaliklari tomonidan 166 bosh qoramol, 800 boshga yaqin qo'y va echki hamda 6369 ta uy parrandasi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga sotilgan [8]. Shu bilan bir qatorda, shaxsiy chorva mollariga zooveterinariya xizmati ham ancha yaxshilangan. Tumanda bu paytda shaxsiy yordamchi xo'jaliklar bilan bir qatorda davlat sektorini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilgan. Ko'p sonli chorva mollari, parranda va yilqilar fermalarda boqilib, ularni yetishtirish sifati yaxshilanib borgan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining yaylov chorvachiligi xodimlarini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning qo'shimcha tadbirlari to'g'risidagi farmoni asosida tuman bo'yicha 75 ta yaylov chorvadori qishloq xo'jalik solig'idan ozod qilingan va mehnat ta'tillari 36 kun etib belgilangan [9].

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida daryolarning ahamiyati ham juda katta, ayniqsa asosan sug'orma dehqonchilik ustun bo'lgan Baxmal hududida bu yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekistonning asosiy daryolaridan biri hisoblangan, "teskari daryo" nomini olgan Sangzor daryosining Baxmal tumani qishloq xo'jaligi infratuzilmalari, ya'ni kanallari va ariqlari uchun, baliqchilikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi hududlarida tabiiy muhitni ta'minlash hamda shu kabi ijobiy islohotlar uchun ahamiyati muhim sanalgan.

Baxmal noxiyasi [10] hududidagi Sangzor daryosi va uning soylarining qirg'oqlarini muhofaza qilish maydonini belgilash to'g'risida Jizzax viloyati ijroiya qo'mitasining 1991-yil 1-fevraldagi 31-R-sonli farmoyishiga binoan tashkil qilingan komissiya Sangzor daryosi va uning qirg'oqlarining muhofaza maydonini tanlash bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqib, quyidagicha qaror qabul qilgan:

— Sangzor qishloq Kengashining 1991-yil 7-iyundagi 33/6-sonli, Baxmal qishloq Kengashining 1991-yil 10-iyundagi 48/6-sonli, Oyqor qishloq Kengashining 1991-yil 12-iyundagi 27/7-sonli, Oqtosh qishloq Kengashining 1991-yil 19-iyundagi 36/6-sonli qarorlariga, shuningdek, Baxmal noxiyasi hududidagi Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasi, 76-sonli ot zavodi va Baxmal dam olish hududining majlis bayonlariga asosan Sangzor daryosi va uning soylarining qirg'oqlarini muhofaza qilish chegarasining umumiy maydoni 1865,3 gektar qilib tasdiqlangan;

— Sangzor daryosi va uning soylarining har ikkala qirg'og'ining 100 metrlik muhofaza chegarasida mavjud qurilish inshootlari va ko'p yillik daraxtlarning umumiy qiymati 392,0 ming so'm miqdorida tasdiqlangan;

— Sangzor daryosi va uning soylarining 100 metrlik muhofaza chegarasida xo'jalik yerlari va tomorqa yerlarda mineral o'g'itlar hamda zaharli ximikatlarni qo'llash taqiqlangan;

— Sangzor daryosi va uning soylarining qirg'oqlarini har ikkala tomondan 100 metrlik muhofaza chegarasida yangi qurilishlarni qurish qat'iy man etilgan;

— Sangzor daryosi va uning soylarining qirg'oqlarini muhofaza qilish bo'yicha nazorat qilish noxiya tabiatni muhofaza qilish komitetiga, qishloq Kengashlari raislariga va xo'jalik rahbarlariga yuklatilgan [11].

Baxmal tumani iqlimi va geografik joylashuvi jihatidan qishloq xo'jaligini rivojlantirishga mos bo'lib, temir yo'lga yaqinligi, xo'jaliklarning ixtisoslashganligi ham uning agrar salohiyatini saqlab qolgan. Qishloq xo'jaligi mahsuloti aholining kundalik ehtiyojini qondirish bilan birga, sanoat korxonalarini uchun ham xomashyo bazasi hisoblanadi.

Shuning uchun Samarqand kooperativ instituti iqtisodiy tahlil kafedrasi mudiri, dotsent M. Pardayev qishloq iqtisodiyotini ko'tarish uchun eng muhimi qishloq xo'jaligi xodimlarining mehnat unumdorligini oshirish, mahsulotning nobudgarchiligini kamaytirish va sifatini yaxshilashga ahamiyat berilishi lozimligini, bu esa yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'proq dasturxonga va savdo rastalariga yetib borishini ta'minlashini ta'kidlagan. "Bunda, birinchi navbatda, mahsulotlarni qishloq aholisiga, so'ngra chetga shartnomali erkin narxda sotish lozim. O'zimizda uzum, mayiz, olma kabi mevalar yetishtirilib, yana ularni bozordan qimmat narxda sotib olinsa, iqtisodiyot rivojlanmaydi. Rejali iqtisodiyot hukm surgan sobiq Ittifoq davrida hamma kuch rejani bajarishga qaratilib, aholi iste'mol qilmay davlatga topshirgan va bu iqtisodiyot o'zini oqlamadi. Negaki, u qo'shib yozuvchilarni, to'ralarni vujudga keltirdi, oqibatda mehnatkash tinmay ishlab qarzdor, lavozim egasi esa hamisha boy yashaydigan bo'ldi", — deydi olim o'z bayonotida [12]. Mehnat tufayli nafaqat Baxmal tumani, balki O'zbekistonning ham kelajagi buyuk bo'ladi. Oqilona mehnat har bir oilaning to'kin-sochin yashashini ta'minlaydi.

Tumanda yetishtirilayotgan mevalar isrofini kamaytirish uchun kichik mahsulotni qayta ishlaydigan zavodlar zarur bo'lgan. Bu paytda tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan yagona vino ishlab chiqarish korxonasi mavjud bo'lgan. Buning o'zi bilan esa tuman aholisining hayotini yaxshilashning iloji bo'lmagan. Tumanda juda ko'p miqdorda olma yetishtirilishi qo'shimcha sexlar qurishni taqozo etgan. Chunki olma mevasining hosili

yetishgunga qadar tabiiy ob-havo sharoiti sababli ko'p qismi yerga to'kilib, lat yegan. Ular saqlashga yaroqsiz bo'lsa-da, qayta ishlashning imkoni bo'lgan. Ulardan sifatli olma sharbati, olma qoqi yoki spirt olish mumkin bo'lgan.

Shuningdek, olim M. Pardayev quyidagilarni ham aytib o'tgan: "Tumanda ko'plab piyoz, kartoshka, sabzavotlarning boshqa turlari ham yetishtirilib, bu mahsulotlarni 3–4 oygacha sifatini buzmasdan yaxshi saqlash mumkin. Buning uchun yirik sovutgichli omborxonalar bilan birgalikda ushbu mahsulotlarni qurituvchi sexlar qurish ham mumkin. Masalan, Yaponiyada oziq-ovqat mahsulotlari quritilgan, darmondori va boshqa elementlarga to'yintirilgan holda iste'mol qilinadi. Shuning uchun ularning o'rtacha yashash yoshi dunyoda eng yuqori" [13].

Shuningdek, chorvachilik sohasining rivoji haqida ham to'xtalib, bu soha rivojlangan bo'lsa-da, chorvachilikka va go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan hududlarda go'shtning aholi uchun sotiladigan narxi yuqori bo'lganligi va go'shtning tanqisligi tanqid qilinib, ahvolni yaxshilash uchun sof chorva vaznini 1,5–2 barobar oshirish kerakligi hamda ularning semizlik darajasini ko'tarish muhim omil ekanligi taklif sifatida aytilgan. Bu paytda tumanda yetishtiriladigan jun mahsulotlaridan oqilona foydalanib, undan ishlab chiqariladigan mahsulotni chetga chiqarish imkoniyatini yaratish mumkin bo'lgan.

Olimlarning ta'kidlashicha, Baxmalda kaloriyasi yuqori, eng noyob navli bug'doy yetishtirilgan, ammo yirik tegirmon mavjud bo'lmagan. Birgina teshik kulcha kerak bo'lganda Samarqand viloyatiga borishga to'g'ri kelgan. Tumanda qadimdan zig'ir va kunjut ham yetishtirilgan. Deyarli har bir qishloqda moyjuvoz bo'lgan. Shuning uchun ushbu sohani yana tiklash muhim sanalgan. Baxmalliklar dukkakli o'simliklardan no'xotni eng ko'p yetishtirishgan va sotish uchun Samarqandga olib borib, qovurilganini 3–5 barobar qimmatga olishgan. Aksincha, o'zlari ushbu mahsulotni qayta ishlab, Samarqand va boshqa shaharlarga tayyor mahsulot sifatida sotishsa, daromadlari yanada ko'payishi mumkin bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Xalq farovonligini o'ylab" // Jizzax haqiqati gazetasi. — 1991. — № 83 (2890). — B. 2.
2. G'allaorol tuman arxivi. Fond 101, ro'yxat 1, yig'ma jild 1614, 248-varaq. — 112-bet.
3. G'allaorol tuman arxivi. Fond 101, ro'yxat 1, yig'ma jild 1615, 47-varaq. — 12-bet.
4. G'allaorol tuman arxivi. Fond 101, ro'yxat 1, yig'ma jild 1615, 47-varaq. — 13-bet.
5. Haydarov H., Usmonov Q. Jizzax tarixi: o'quv qo'llanma. — Toshkent: O'qituvchi, 2009. — 88 b.
6. Posyolka (ruscha) — kichik aholi punkti bo'lib, u shahar ham, qishloq ham hisoblanmaydi.
7. G'allaorol tuman arxivi. Fond M-101, ro'yxat 1, yig'ma jild 9, 77-varaq. — 1-bet.
8. G'allaorol tuman arxivi. Fond M-101, ro'yxat 1, yig'ma jild 9, 77-varaq. — 1-bet.
9. O'sha manba. — 2-bet.
10. Nohiya (arabcha "nahiya") — viloyat yoki ma'muriy birlik tarkibidagi quyi hudud.
11. G'allaorol tuman arxivi. Fond 101, ro'yxat 1, yig'ma jild 1621, 50-varaq. — 6-bet.
12. "Oyoq ostida yotgan boyliklar" // Jizzax haqiqati gazetasi. — 1993. — № 125 (3245). — B. 2.
13. "Oyoq ostida yotgan boyliklar" // Jizzax haqiqati gazetasi. — 1993. — № 125 (3245). — B. 2.